

MAXSUS TAKLIF:

““CAFELOVA” KAFESIDA “PAVLOVA” SHIRINLIGI UCHUN SERTIFIKAT”

2023-yil “16” aprel

1. “Pavlova” shirinligi uchun sertifikat” Maxsus taklifi “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MCHJ – “A-Pay” Elektron pul Tizimi Operatori tomonidan Aksiya Hamkori – “Cafelova” kafesi (MCHJ “KELAJAK OBOD 2018”) ko‘magida tashkil etildi.
2. Maxsus taklif o‘tkaziladigan hudud: Buxoro shahri.
3. Amal qilish muddati: 2023 yil “17” apreldan 2023-yil “19” aprelgacha. Sertifikatlar soni cheklangan.
4. Maxsus taklifdan faqat “A-Pay” Elektron pul Tizimida identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar foydalanishi mumkin.
5. Mijozlarni Maxsus taklif haqida xabardor qilish, tegishli ma‘lumotlarni Tashkilotchining <https://www.a-pay.uz> veb-saytida va (yoki) “A-Pay” mobil ilovasida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
6. Maxsus taklif shartlari: identifikatsiyadan o‘tgan mijoz A-Pay Peshtaxtasida 10 000 APS evaziga “Pavlova” shirinligi uchun Sertifikat olish imkoniga ega. “Pavlova” shirinligi uchun Sertifikatni faollashtirish uchun foydalanuvchi savdo nuqtasida “Mango-malina” muss shirinligini xarid qilishi kerak bo‘ladi. “Pavlova” shirinligi uchun Sertifikat Buxoro shahrida joylashgan “Cafelova” kafesida faqat Maxsus taklif amal qilishi davrida faollashtirilishi mumkin.
 - Manzil: Ibn Sino ko‘chasi, 40. Mo‘ljal: “Botir taomlari” avtobus bekati.

Bir nafar Mijoz Maxsus taklifning amal qilish muddati davomida “A-Pay” Peshtaxtasidan bir dona “Pavlova” shirinligi uchun sertifikatni olishi mumkin. Maxsus taklifning amal qilish muddati yakunlanganidan so‘ng faollashtirilmagan “Pavlova” shirinligi uchun Sertifikatlar haqiqiy hisoblanmaydi.

7. Tashkilotchiga Mijozni Maxsus taklif ishtirokchilari ro‘yxatidan chetlashtirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan faktlar haqida ma‘lum bo‘lgan taqdirda (“APS Bonus” Bonus dasturi Shartlariga rioya qilmaslik holatlari, “A-Pay” Elektron pul Tizimida aksiyalar o‘tkazish qoidalarini buzish, firibgarlik, g‘irromchilik, o‘zi haqida bila turib yolg‘on ma‘lumotlarni taqdim etish va h.k.), bunday shaxslar Maxsus taklifdan foydalanish huquqidan mahrum etiladi.
8. Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra, bir tomonlama tartibda, istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish yoki vaqtincha to‘xtatib turish, shuningdek, har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab



qoladi. Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish, to‘xtatib turish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish da‘vo uchun asos bo‘la olmaydi.

9. Maxsus taklif muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Tashkilotchi tegishli ma‘lumotlarni o‘zining <https://www.a-pay.uz> manzilidagi rasmiy veb-sayti va (yoki) mobil ilovasida joylashtirish orqali ommani xabardor qilish majburiyatini oladi.
10. Tashkilotchi “Pavlova” shirinligi uchun sertifikat Maxsus taklifini noto‘g‘ri talqin qilish natijasida kelib chiqqan har qanday anglashilmovchilik, tushunmovchilik, da‘vo yoki zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.
11. Agar Maxsus taklifga doir biron-bir savol, tushunmovchilik yoki nizoli holatlar yuzaga kelsa, Mijoz Tashkilotchi bilan bog‘lanish orqali ularga aniqlik kiritish va hal qilish uchun barcha choralarni ko‘rish shart.
12. Tashkilotchining majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan fors-major holatlar, shu jumladan suv toshqini, yong‘inlar, ish tashlashlar, zilzilalar, ommaviy epidemiyalar, davlat yoki huquqni muhofaza qilish organlarining buyruqlari va Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa obyektiv sabablar yoki boshqa tabiiy omillar yuzaga kelgan taqdirda Tashkilotchi Mijozlar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.
13. “Pavlova” shirinligi uchun sertifikat” Maxsus taklifida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish fakti Mijozning o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini qayta ishlanishi va Tashkilotchidan elektron pochta (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) orqali reklama va boshqa xabarlarini qabul qilishga roziligini bildiradi. Har bir Mijoz o‘zi bilan tushirilgan fotosurati, video rolik, Tashkilotchi va uning o‘rtasida bo‘lgan intervyuni Tashkilotchining veb-saytida va (yoki) mobil ilovasida, reklama materiallarida, ijtimoiy tarmoq sahifalarida va hokazolarda joylashtirish va e‘lon qilishga roziligini beradi. Tashkilotchi yuqorida qayd etilgan materiallardan cheklanmagan muddat davomida foydalanishi mumkin va Mijoz buning uchun hech qanday haq talab qilmaydi.

